

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN  
MUZIKA VA SAN‘AT  
AKADEMIK LITSEYI**




**“Bobur ijodini o‘rganish:  
ruboiy”**

**mavzusi yuzasidan bir soatlik  
OCHIQ DARS ISHLANMASI**

**Muallif:**

**Jamoliddin Nurmuhammadov**





**MEHR KO'P KO'RGAZDIM AMMO,  
MEHRIBONE TOPMADIM  
JON BASE QILDIM FIDO  
OROMI JONE TOPMADIM.**



## Mavzu: Bobur ijodini o`rganish: ruboiy.



### *Dars maqsadlari:*

#### *Ta'limiy maqsad:*

*Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining ilmiy va badiiy tafakkur rivojidadagi ahamiyatini anglatish.*

#### *Tarbiyaviy maqsad:*

*Bobur ruboiylarida aks etgan insonparvarlik tuyg`ularini o`quvchilarga singdirish.*

#### *Rivojlantiruvchi maqsad:*

*Bobur ijodini o`rganish orqali yuksak vatanparvarlikni targ`ib qilish.*

**Dars metodi:** *Interfaol.*

**Dars turi:** Aralash.

**Dars usullari:** “BBB”, “Yod olamiz”, “Shajara”, “Aqliy hujum”

**Dars jihozi:** Darslik, Bobur asarlari, “Til va adabiyot jurnali” (2013-yil 2-soni), tarqatmalar, ko`rgazmali rasmlar, audiotasma.

### **Dars borishi**

#### **O`qituvchi:**

- Assalomu alaykum, aziz o`quvchilar hamda darsimiz mehmonlari, ilm shaydolari!

Mana bugun siz bilan buyuk bobokolonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bir nazar tashlaymiz. Shuningdek, Boburning ruboiylari haqida bahslashamiz!


Avvalo, siz o`quvchilar bilan birga Bobur haqida nimalar bilishimizni bir yodga olamiz.

*Shu o`rinda o`quvchilarning Bobur haqida bilishsa, bir so`rab olinadi. Agar bexabar bo`lsa, kichik ma`ruza o`tkazib yodga olinadi.*

## Kichik ma'ruza:

Bobur adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng buyuk vakilidir. U 1483-yilning 14-fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo (1455—1494) Temurbekka evara (Abusaid Mirzo — Sulton Muhammad Mirzo — Mironshoh — Amir Temur) edi. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon esa o'zbeklashgan mo'g'ul urug'idan bo'lib, o'n ikki avlod orqali Chingizxonga tutashgan. Bobur uni „Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandir" deb tanishtiradi.

Umarshayx Mirzoning 3 o'g'li, 5 qizi bor edi:



Bobur o'zidan besh yosh katta Xonzodabegim bilan bir onadan edilar. Umarshayx Andijonning g'arbida joylashgan Axsi (Axsikat deb ham aytilgan, Sirdaryoning o'ng sohilida, hozirda Namangan viloyati, Shaxand qishlog'i hududida xarobalari saqlanadi) shahrini poytaxt qilgan edi.

Bo'lajak shoir 12 yoshida ekan, otasi bevaqt halok bo'lib, Farg'ona hokimligi uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo'ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo'ldan berib, tog'-u toshlarda besh-o'n yigiti

bilan goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo'ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o'tdi: Kobul va G'aznani qo'lga kiritdi. So'ng 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o'rnatdi.

U 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

*Shu o`rinda o`quvchilarga yuzlaniladi.*

### **O`qituvchi:**

- Aziz o`quvchilar, “Vatan tarixidan hikoyalar” darslarini tinglab borasizmi? Agar ana shu darslarga quloq solgan bo`lsangiz, ayting-chi, Bobur bobomiz Hindistonni zabt etgach, qanday ezgu ishlarni amalga oshirdilar?

### **1-o`quvchi:**

- Bobur Hindistondagi diniy mazhab o`rtasidagi janjallarining oldini olishga, murosa yo`li bilan ularni tinchlantirishga harakat qiladi.

### **2-o`quvchi:**

- Mamlakatda osoyishtalikni qaror toptirishga urindi. Chunki bu yerda mayda rojaliklar bir-biri bilan ayovsiz kurash olib borar edi.

### **3-o`quvchi:**

- Adolatli qonunlar chiqardi va ularning tatbiqini ta'minlandi.

### **4-o`quvchi:**

- G'ayridinlik solig'i - **juz'yani** bekor qildi. Jiz`ya solig`i – jon solig`idir.

### **5-o`quvchi:**

-O'lgan erning tirik xotinini murda bilan birga kuydirishni taqiqladi.

### **6-o`quvchi:**

- Mamlakatda obodonlik ishlarini yo'lga qo'ydi. Kanallar qazdirdi, binolar qurdirdi.

### **7-o`quvchi:**

- Atrofiga olim-u fozillarni to'pladi. Bobur bog'lar bino qildi, Movarounnahrning shirin-sharbat mevalarini hind yerida ekib, undirdi. Lekin bu yerda Bobur ona-Vatani mevalarini qo`msab yashadi.

- Ustoz, shu o`rinda biz kichik sahna ko`rinishi tayyorlagan edik, ruxsat bersangiz, uni namoyish etsak.

**O`qituvchi:**

- Marhamat!

*Sahna ko`rinishi. Fonda “Cho`li iroq” kuyi.*

Sahnada Boburshoh va mulozimlar suhbat qurayotgan vaqtda bir mulozim kirib keladi va tavoze' bilan egilib shunday deydi:

“Olampanoh Movarounnahrda elchi kelibdi. Siz zoti oliylari bilan ko`rishmoq istaydur!”

**Bobur:**

- Mayli, kira qolsin!

*Elchi egilib salom beradi.*

**Bobur:**

- Xush kelibsiz!

**Elchi:**

- Olampanoh kamina Movarounnahrda tashrif buyurdim. Siz bilan ko`rishish men uchun sharaf! Sizga bobolaringiz yurtidan sovg`a keltirdim.

*Qovunni Boburga tutqazadi. Bobur qovunni hidlab, ko`ziga surtadi va shunday deydi:*

Elchiga boshdan-oyoq sarpo kiydiring!!!

**Bobur:**

- Tole yo`qki, jonimg`a balolig` bo`ldi,

Har ishni ayladim xatolig` bo`ldi.

O`z yerni qo`yib hind sari yuzlandim,

Yo rab netayin ne yuz qarolig` bo`ldi.

*Bobur oldinga yurgan holda deydi:*

- Agar joiz bo`lsa erdi, o`zga yurtga shoh bo`lguncha, o`z yurtimga qalandar bo`lib bormoqlikni afzal ko`rur erdim. **Andijon qoldi. Anda jon qoldi!**

*Sahnadan chiqib ketadi...*

*Yana davom etiladi:*

**8-o`quvchi:**

- Boburning avlodlari hozirgi kunda ham Hindiston va boshqa yurtlarda yashashmoqda.

## **O`qituvchi:**

- Juda ham to`g`ri, bu o`quvchimizning fikrini to`ldirish maqsadida e`tiboringizni ekranga qaratmoqchiman. Ushbu slaydlar Boburiylar haqida so`zlaydi. Marhamat!



*“Bobur avlodlari” slaydi namoyishi bo`lib o`tadi. Orada slaydlarga sharhlar berib boriladi.*

*Shundan so`ng, Bobur asarlari haqida ma`lumot berib o`tiladi. Bunda o`quvchilarning ma`lumotlariga ham tayaniladi.*

## **O`qituvchi:**

- Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g'oyat iste'dodli farzandi edi. U o'ta notinch, sargardonlikda kechgan umrini zo'r salohiyati tufayli jozibali qila oldi. Uning hayoti faqat janglar bilangina emas, ilhomiy onlar bilan ham to'la edi.

- Qani o`quvchilar, Boburning asarlari haqida nimalar bilasiz?

### **1-o`quvchi:**

- U yigirma yoshida yangi bir yozuv — „Xatti Boburiy“ni kashf qildi.

### **2-o`quvchi:**

- Umr bo'yi ajoyib she'rlar yozdi, devon tartib qildi.

### **3-o`quvchi:**

- “Boburnoma”day ulkan tarixiy-badiiy asarni yaratdi.

### **4-o`quvchi:**

- Musiqa bilan shug'ullanib, „**Chorgoh**“ maqomiga „savt“lar bitdi.

### **5-o`quvchi:**

- 1521- yilda she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi „**Mubayyin al-zakot**“ („Zakot bayoni“) asarini yozdi.

### **6-o`quvchi:**

- 1523-1525- yillarda aruz vazni haqida „**Muxtasar**“ nomli risola bitdi.

### **7-o`quvchi:**

- Boburning „**Harb ishi**“, „**Musiqa ilmi**“ nomli asarlari hozirgacha topilgan emas.

### **8-o`quvchi:**

- U tarjima bilan ham shug'ullandi. Xo'ja Ahrorning „**Volidiya**“ asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga ag'dardi.

## O`qituvchi:

- Rahmat, aziz o`quvchilar! Ma'lumotlaringizga yana quyidagilarni qo`shimcha qilaman:

Bobur turk va fors tillarida erkin ijod etgan. U turkcha she'rlarini to`plab, 1519-yilda Kobulda, 1528-1529- yillarda Hindistonda devonlar tuzdi. Bu ikki devon o'sha joylar nomi bilan „**Kobul devoni**“, „**Hind devoni**“ deb ataladi. „Kobul devoni“ topilgan emas.

Bizgacha yetib kelgan she'rlarining umumiy soni to'rt yuzdan ortadi. Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Bobur she'rlarining ma'lum qismi *hasbi hol* (o`z tarjimai holi) xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan bir lavhasi bilan bog'lanadi. Shoir she'rlarining hammasi benihoya samimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Uning she'rlari janriga ko'ra ham xilma-xildir. Shoir **tuyuq, qit'a, muammo, masnaviy, fard** kabi janrlarda ijod etgan.

*Dars shu yerga kelganda darsning 2-qismi boshlanadi.*

## O`qituvchi:

- Mana, aziz o`quvchilar, darsimizning 2-qismiga ham yetib keldik. Biz bu qismda Boburning o`tli dil ohlari ila bitilgan ruboiylari bilan tanishib chiqamiz. Ma'lumot uchun ruboiy janri haqida quyidagi ma'lumotlarni aytib o`taman:

- “Ruboiy” arabcha so'z bo'lib, to'rtlik degani. Sharqda keng tarqalgan she'r turi, lirik janr. To'rt satrdan iborat bo'ladi. Ko'pincha birinchi, ikkinchi, to'rtinchi satrlari qofiyalanib keladi. Harflar bilan ko'rsatganda a-a-b-a shaklida bo'ladi. Ba'zan har to'rt satri o'zaro qofiyalanishi (a-a-a-a) mumkin. **Qofiya** misra oxiridagi ohangdosh so'zdir. **Radif** misra oxiridagi takrorlanuvchi so'zdir. Masalan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

*Qofiyadosh so'zlar:* vafo-jafo-jazo: 1- 2- va 4-satrlar o'zaro qofiyalanyapti.

Demak, qofiyalanish tizimi **a-a-b-a**.

*Radif*— topqusidur.

Ruboiyda fikr tugallangan bo'lishi kerak. Yana muhim xususiyatlaridan biri shuki, ruboiy aruz vazni hazaj bahrining axram va axrab degan shakllaridagina yozilgan. Lekin keyingi yuz yilda bunga juda kam rioya qiladilar.

Fors-tojik adabiyotida ruboiy janrida Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil shuhrat qozonganlar. O'zbek she'riyatida esa Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ruboiylari juda mashhur bo'ldi. Bugun ham ruboiylar ko'plab yozilmoqda.



Ma'ruza tugagach, o'qituvchi o'quvchilarning ruboiy janri haqida eslab qolganliklarini sinab ko'rish maqsadida, "Xotira mashqi"ni o'tkazadi. Buning uchun o'quvchilarga quyidagicha kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar uni to'ldiradilar. Vaqt 2 daqiqa.

**"Xotira mashqi". Ruboiy haqida nimalarni eslab qoldik?**

Ruboiy \_\_\_\_\_ so'z bo'lib, \_\_\_\_\_ degani. Sharqda keng tarqalgan she'r turi, \_\_\_\_\_ janr. \_\_\_\_\_ satrdan iborat bo'ladi. Ko'pincha \_\_\_\_\_ satrlari qofiyalanib keladi. Harflar bilan ko'rsatganda \_\_\_\_\_ shaklida bo'ladi. Ba'zan har to'rt satri o'zaro qofiyalanishi (a-a-a-a) mumkin. Qofiya misra oxiridagi \_\_\_\_\_ so'zdir. \_\_\_\_\_ misra oxiridagi takrorlanuvchi so'zdir. Ruboiyda \_\_\_\_\_ tugallangan bo'lishi kerak. Yana muhim xususiyatlaridan biri shuki, ruboiy \_\_\_\_\_ vazni \_\_\_\_\_ bahrining \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ degan shakllaridagina yozilgan.

***Vaqt tugagach, to'ldirilgan kartochkalar yonma-yon o'quvchilar bilan almashiriladi va slayd orqali tekshiriladi. Xatolar nisbati qayd etiladi.***

*Shundan so'ng, o'quvchilar bilan birga **ruboiyxonlik** o'tkaziladi. Unga ko'ra, o'quvchilar yodlab kelgan ruboiylarini zo'r mahorat bilan ijro etib beradilar.*

**Ruboiylaridan namunalar:**



Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa,  
Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa.  
Og'zi-yu beliga bud-u nobudim sarf,  
Ko'zi-yu labig'a jism-u jonim sadqa.




Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,  
Sen shu'lasen-u ul shu'lag'a men kuldurmen  
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,  
Shahmen elga, vale sanga quldurmen.



Jonimda mening hayoti jonim sensen,  
Jismimda mening ruhi ravonim sensen.  
Boburni seningdek o'zga yo'q yori azizi,  
Alqissaki, umri jovidonim sensen.



Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,  
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo'qtur.  
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.




Beqaydmen-ul xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.  
Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,  
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.



Har kimki, vafo qilsa vafo topqusidur,  
Harkimki, jafu qilsa, jafu topqusidir.  
Yaxshi kishiki ko'rmagay yomonliq hargiz,  
Har kimki, yomon bo'lsa jazo topqusidir.

Ruboiyxonlik tugagach, vaqt yetrsa, ayrim ruboiylarga qisqa sharh o`qib beriladi. o`quvchilar esa sharh o`zlari yodlagan ruboiylardan qaysi biriga tegishli ekanligini topadilar(ommaviy):


### “O`yla, izla, top” o`yini



**1-shark**

Bu ruboiyda shoirning tanti shaxsiyati bo`rtib ko`rinib turibdi. U hayot haqida falsafiy o'y surmaydi, balki ko`ngil istaklarini samimiy izhor etadi. Ko`nglining mayllari shu qadar yuksakki, u boshqa ko`ngillarga ham o'tib qoladi. Chindan ham inson umri yillarning uzunligi bilan emas, balki erishilgan maqsadlar bilan o'lchanadi. Maqsadi bo'lsa-yu unga erisholmasa, inson hayotining mazmuni xiralashadi.

*(Javob: “Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi..” deb boshlanuvchi ruboiysi haqida)*



**2-shark**

Iltijo ohangidagi ushbu ruboiyda ham Boburga xos o'ktamlik, intilgan mo'ljalning yuksakligi ko'zga tashlanadi. Shoir ko'zga tashlanmay, o'rtamiyona bo'lib yashashni istamaydi. U yo Allohning marhamatiga, inoyatiga g'arq bo'lishni yoki uning qahriga yo'liqib tuproqqa tenglanishni istaydi. U Yaratganning qudratini tuyadi, shu bois ixtiyoriga ko'nadi. Lekin lanj hayot kechirishdan asrashni iltijo qiladi.

*(Javob: “Yo qahr-u g'azab bila meni tufroq qil..” deb boshlanuvchi ruboiysi haqida)*

## Mustahkamlash uchun savol-javob o`tkaziladi:

1. “Bobur” soʻzining maʼnosi?

– arabcha “sher” degani

2. Boburning onasi haqida nimalar bilasiz?

– Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Ismi – Qutlugʻ Nigorxonim.

3. Boburning otasi ?

– Umarshayx Mirzo, Fargʻona viloyati hokimi

4. Bobur otasi vafot etganda necha yoshda edi?

– 12 yoshda

5. Bobur necha yoshda Samarqandni zabt etadi?

– 15 yoshda

6. Bobur necha yoshda Kobul va Gʻaznani zabt etadi?

– 20 yoshda, yaʼni 1503-yilda

7. Bobur qachon qayerda tugʻildi?

– 1483-yilning 14-fevralida Andijonda

8. Bobur qachon qayeda vafot etadi?

– 1530-yil 26-dekabrda Agrada

9. Boburning xoki nima uchun Kobulga koʻchirildi?

– oʻz vasiyatiga koʻra

10. Boburning adabiy merosi qancha?

– ikkita sheʼriy devon tuzgan, birinchisi bizgacha yetib kelgan. Unda 400dan ortiq sheʼri bor. Shundan 200 dan ortigʻi ruboiy. Ikkinchi devoni taqdiri nomaʼlum.

11. “Ahbob” soʻzining maʼnosi?

– doʻstlar, yorolar.

12. “Ruboiy” soʻzining maʼnosi?

– toʻrtlik

13. Ruboiy necha xil boʻladi?

– ikki xil. Taronai ruboiy ( $a - a - a - a$ ) va ruboiy xossa ( $a - a - b - a$ )

14. Radif nima?

– misra oxirida takrorlanuvchi soʻz.

15. Mehnat soʻzining maʼnosi nima?

- azob, mashaqqat.

*Shundan soʻng, dars xulosalanadi va baholash oʻtkazilgach, dars yakunlanadi.*

\*\*\* TAMOM \*\*\*